



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**19.00.05 – IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA. ETNOPSIXOLOGIYA IXTISOSLIGI
BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2026

Annotatsiya:

Ushbu fan turli madaniy muhitlarda xulq-atvor va mentalitetning psixologik jihatlarini o'rganadi. U ijtimoiy-madaniy farqlar kontekstida psixologik jarayonlarni tushunish, tahlil qilish va tadqiq qilishga qaratilgan.

Etnopsixologiyani ijtimoiy psixologiya doirasida o'rganish madaniyat va inson psixikasining o'zaro ta'sirini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu fan madaniy, etnik va ijtimoiy omillar shaxsning shakllanishiga, uning psixologik xususiyatlariga, e'tiqodlariga, qadriyatlariga va xulq-atvor normalariga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

Ijtimoiy psixologiya doirasida etnopsixologiyaning maqsadi turli madaniy kontekstlarda inson psixikasini tushunishga kompleks yondashuvni yaratishdan iborat. U madaniyat va individual psixologik xususiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, inson ruhiyati va xatti-harakatlaridagi ijtimoiy, etnik va madaniy farqlarni chuqur tushunishga yordam beradigan vositalarni taqdim etadi.

Tuzuvchilar:

Qodirov O.S.	–	SamDU, Amaliy psixologiya kafedrası mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc)
Shonazarov A.M.	–	SamDU, Amaliy psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Islamova D.B.	–	SamDU, Amaliy psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dastur Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakultetining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi – ijtimoiy psixologiya metodini tushunish umumiy psixologiya va sotsiologiya predmetini tushunishga bog‘liqligini o‘rganish, psixologiya va sotsiologik adabiyotlarda ijtimoiy psixologiya predmetini birdek tushunish yo‘qligini tahlil qilish, ijtimoiy psixologiya predmetiga nisbatan mavjud uch nuqtai nazarni o‘rganish, ijtimoiy psixologiyaning boshqa fanlar, psixologiyaning boshqa turkumlari bilan munosabati, ijtimoiy psixologiya predmeti tushunchasi, tarixni tanqidiy analiz qilish va chet ijtimoiy psixologiyasidagi nazariyalarning, oqimlarning mohiyatini ochib berish, boshqaruv psixologiyasiga oid bilimlar, kategoriyalar va tushunchalarni o‘zlashtira oladigan malakali mutaxassislar tayèrlash ta’lim tizimining negizi hisoblanadi.

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligining vazifasi – ijtimoiy psixologiyaning predmeti, ijtimoiy psixologik qarasharning rivojlanish tarixi, fanning metodologiyasi va metodlari, ijtimoiy psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari, ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi, muloqot psixologiyasini o‘rganishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun ***ijtimoiy psixologiya fani bo‘yicha*** – ijtimoiy psixologiyaga kirish, ijtimoiy psixologik g‘oyalar shakllanishi tarixi, ijtimoiy psixologiya metodologiyasi va metodlari, ijtimoiy psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari, ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi, ijtimoiy va shaxslararo munosabatlar, shaxslararo munosabatlar va ularning kechishi, shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi muammosi, muloqot psixologiyasi, ijtimoiy psixologiyada guruhlar muammosi, kichik guruhlar psixologiyasi, olomon psixologiyasi, guruh sharoitida zamonaviy o‘qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari, ijtimoiy rol, shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy ustanovka, liderlik va boshqaruv, tatbiqiy ijtimoiy psixologiya, ***etnopsixologiyasi fani bo‘yicha*** – etnopsixologiya fanining predmeti, vazifalari va metodlari, etnopsixologiya fanining shakllanish tarixi, etnopsixologiya muammolarini o‘rganish bo‘yicha yaqin xorij mamlakatlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar, etnos va millat tushunchalarining qiyosiy tahlili, etnos va shaxs, milliy xarakter va etnik identiklik, milliy psixika, etnik ramzlar va madaniyat, etnik stereotiplar va ularning turlari, etnik o‘zaro munosabatlarning xususiyatlari, etnik nizolar va etnosentrizm bo‘yicha bilimlarni oshirish va ko‘nikma hosil qilishlari zarur.

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da’vogarlar uchun 2 ta ixtisoslik fanlari bo‘yicha: “Ijtimoiy psixologiya”, “Etnopsixologiya” fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan.

Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA FANI BO'YICHA:

Ijtimoiy psixologiyaga kirish:

Ijtimoiy psixologiya predmetini tushunish, umumiy psixologiya va sotsiologiya predmetini tushunishiga bog'liqligi. Psixologik va sotsiologik adabiyotlarda ijtimoiy psixologiya predmetini birdek tushunishning yo'qligi. Ijtimoiy psixologiya predmetiga nisbatan mavjud uch nuqtai nazar.

Ijtimoiy psixologiyaning boshqa fanlar, psixologiyaning boshqa turkumlari bilan munosabati. Ijtimoiy psixologiya predmeti tushunchasi.

Ijtimoiy psixologik g'oyalar shakllanishi tarixi:

Ijtimoiy, falsafiy va sotsiologik ta'limotlarda ijtimoiy-psixologik g'oyalarni rivojlantirilishi. Ijtimoiy psixologiyaning mustaqil fan bo'lib ajralib chiqishida ijtimoiy, ilmiy va ideologik nazariyalarni yaratish bo'yicha birinchi harakatlar.

"Xalqlar psixologiyasi" hamda uning tarixiy sabablari va vazifalari, Omma va olomon psixologiyasi. "Ijtimoiy xatti-harakat instinkti" nazariyasi (Mak Daugall). Ijtimoiy psixologiyaning chet eldagi hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan asosiy nazariy konsepsiyasi. O'zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari. Ijtimoiy psixologiyaning Rossiya va MDH mamlakatlarida rivojlanish tarixi.

Ijtimoiy psixologiya metodologiyasi va metodlari:

Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning metodologik muammolari. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotning ikki asosiy tipi. Eksperimental va korrelyatsion.

Ijtimoiy psixologik tadqiqotning asosiy metodlari. Kuzatish metodi. Suhbat metodi. Hujjatlarni tahlil qilish metodi. Proyektiv metodlar. Ijtimoiy psixologiyada "Test" qo'llashning sharoitlari. Ijtimoiy psixologiyada eksperimentlarning asosiy tiplari.

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari:

Ijtimoiy psixologiyaning eksperimental fan sifatida rivojlanishi. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy zamonaviy yo'nalishlari inson xulq-atvorini va guruhdagi munosabatlarni o'rganuvchi nazariy maktablardan iborat. Psixoanalitik yo'nalish. Bixevioristik yo'nalish. Kognitiv yo'nalish. Gumanistik yo'nalish va Neobixeviorizm.

Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi:

Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida. Shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasidagi ikki polyar nuqtai nazar. Nativizm va emperizm. Ijtimoiy normalar, roller, sanksiyalar va shaxs.

Ijtimoiy psixologiyada **shaxs muammosi** markaziy o'rinni egallaydi. Bu yo'nalish shaxsni alohida biologik mavjudot emas, balki ijtimoiy munosabatlarning mahsuli va faol ishtirokchisi sifatida o'rganadi.

Shaxs muammosining asosiy jihatlari.

Ijtimoiy-psixologik tuzilish: Ijtimoiylashuv (Sotsializatsiya). Ijtimoiy ustanovka (Attityud). Ijtimoiy identifikatsiya. Rolli xulq-atvor. Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlar.

Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi. "Men" – obrazi va o'zini o'zi baholash. O'z-o'ziga bahoning past, o'ta yuqori va adekvat bo'lishi. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlari. O'z-o'zi bilan dialog.

Shaxslararo munosabatlar va ularning kechishi

Shaxslararo munosabatlarda egoistik munosabatning namoyon bo'lishi. Shaxsning altruistik xulqi haqida nazariyalar. Shaxslararo munosabatlarda stigma va diskriminatsiyaning namoyon bo'lishi. Diskriminatsiya. Shaxs va uning tolerantligi tushunchasi. Tolerantlikning psixologik adabiyotlarda o'rganilishi. Tolerantlikni tushuntirishga oid ilmiy yondashuvlar

Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi muammosi

Agressiya tushunchasi. Shaxslararo munosabatlarda agressiv xulqning namoyon bo'lishi. Agressiv xulq-atvor borasidagi nazariyalar. Agressiyaning ijtimoiy o'rganish nazariyasi. Agressiv xulq-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhitning roli. Agressiv xulq-atvorning shakllanishida tengdoshlarning roli.

Muloqot psixologiyasi

Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari. Muloqot va uni o'rganish muammolari. Muloqotning kommunikativ tomoni: muomala – informatsiya almashish. Muloqotning interaktiv tomoni: muloqotning harakatlar bilan almashishi. Muomalaning perseptiv tomoni: o'zaro idrok etish.

Ijtimoiy psixologiyada guruhlar muammosi

G.M.Andreevaning guruhlar bo'yicha klassifikatsiyasi. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi. Etnik guruhlar psixologiyasi. Kichik guruhlar psixologiyasi. Kichik guruhlarining klassifikatsiyasi. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.

Kichik guruhlar psixologiyasi

XXI asr ijtimoiy psixologiyasida kichik guruhlar bo'lgan qiziqishlarning sabablari. Ijtimoiy hayotda kichik guruhlar ahamiyati oshishining obyektiv sharoitlari. Kichik guruh tushunchasi. Kichik guruhlar klassifikatsiyasi: birlamchi va ikkilamchi guruhlar, rasmiy va norasmiy, a'zoli va referent guruhlar. Guruh o'lchamlari va uning tizimi. Jamoalarda psixologik o'zaro moslik. Guruhdagi psixologik muhit va uni o'rganish.

Olomon psixologiyasi

Ommaviy ijtimoiy jarayonlar va harakatlar psixologiyasi. Olomonning umumiy tavsifi. Uning ruhiy birdamlik qonuni. "Olomon" tushunchasi va uning

turlari. Olomonning ijtimoiy-psixologik belgilari. Olomonni harakatga keltiruvchi psixologik mexanizmlar

Ijtimoiy rol

Ijtimoiy rol tushunchasi va ko‘rinishlari. R.Linton va D.Mid ijtimoiy rol tushunchasi. T.Parsonsning ijtimoiy rolning asosiy tavsiflari. Rolni qabul qilish. Ijtimoiy rollardagi emotsionallik. Ijtimoiy rolni shakllantirish. Rollar motivatsiyasi. Namoyon qilinishiga qarab faol va yashirin roller. Ijtimoiy rolning shaxs shakllanishiga ta’siri. D.A.Leontevning shaxs ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishdagi ikki aspekt. Rollardagi nizolar. U.G.Gudaning “Rollardagi nizolar nazariyasi”. M.Komarovskaya tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot.

Shaxs ijtimoiylashuvi

Ijtimoiylashuv tushunchasi. F.G.Giddingsning “Ijtimoiylashuv nazariyasi”. O‘spirinlik davrida shaxs ijtimoiylashuvi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs yo‘nalishining shakllanishi. Mas’uliyat. Julian B.Rotterning “Nazorat lokusi” tushunchasi. Maqsadlar va ideallar. Qiziqishlar va dunyoqarash.

Ijtimoiy ustanovka

Ijtimoiy ustanovka tushunchasi. Ijtimoiy ustanovkalarni o‘rganishda Uznadze maktabi tadqiqotlarining ahamiyati. Psixologiyada ijtimoiy ustanovkalarni o‘rganishga bo‘lgan turli yondashuvlar. Ijtimoiy ustanovka strukturasi. Ijtimoiy ustanovkalar kognitiv, emotsional va xatti-harakat komponentlari. Ijtimoiy ustanovkalar o‘zgarishi muammosi va uning nazariy va amaliy ahamiyati. Ustanovkalarning to‘rt bosqichli tizimi

Liderlik va boshqaruv

Boshqaruv psixologiyasining ijtimoiy psixologik jihatlar. Boshqaruv jarayonining ikki muhim jabhasi. Ijtimoiy jabha. Psixologik jabha. Guruhlarda rahbarlik va liderlik. “Lider” va “rahbar” tushunchalari o‘rtasidagi farqlar haqida B.D.Parigin fikrlari. Liderlikka oid nazariyalar. Xarizmatik nazariya. Vaziyatga bog‘liqlik nazariyasi. Sintetik nazariya. Rahbar imidji. Liderlik uslublari haqida tushuncha. Avtoritar. Demokratik. Liberal. Rahbarlik sifatleri.

Tatbiqiy ijtimoiy psixologiya

Ijtimoiy psixologiyaning tadbiqiy va amaliy sohalari. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy sohalari. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Siyosat sohasidagi psixologiya. Oila va nikoh borasidagi tadbiqiy ishlar. Maorif sohasidagi amaliy ishlar. Huquqbuzarlikning oldini olish.

Tatbiqiy ijtimoiy psixologiya – ijtimoiy psixologiya nazariyalari, usullari va tadqiqot natijalarini real hayotiy muammolarni hal qilish hamda insonlar farovonligini oshirish uchun amaliyotda qo‘llaydigan sohadi.

U “inson – guruh – jamiyat” tizimidagi real muammolarga diagnoz qo‘yadi va ularni o‘zgartirish choralarini ishlab chiqadi.

ETNOPSIXOLOGIYA FANI BO‘YICHA:

Etnopsixologiya fanining predmeti, vazifalari va metodlari. Etnopsixologiya haqida umumiy tushuncha. Etnopsixologiya fanining predmeti, ob’yekti va vazifalari. Etnopsixologiya fanining asosiy tushunchalari: “etnos”, “madaniyat”, “etnik identiklik”. Etnopsixologiya fanining nazariy va amaliy ahamiyati. Etnopsixologiya fanining muammolari.

Etnopsixologiya fanlararo xarakteri. Etnopsixologiya fanining asosiy bo‘limlari. Etnopsixologik tadqiqotlarda “Etic” va “Etic” yondashuvlar. Etnopsixologiya fanining tadqiqot metodlari. Etnopsixologik tadqiqotlarni tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Etnopsixologiya fanining shakllanish tarixi

Sh.Monteskye tadqiqotlarida geografik determinizm g‘oyasi. Gerder falsafasida “xalq ruhi” g‘oyasi. M.Lasarus va G.Shteyntalning xalqlar psixologiyasi haqidagi ta’limoti. G.Lebonning xalq va omma psixologiyasi to‘g‘risidagi konseptual qarashlari. V.Vundtning xalq va omma psixologiyasi nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissi. F.Boas tadqiqotlarida etnik madaniyatning yaxlit tuzilma sifatida o‘rganilishi. R.Benedikt tadqiqotlarida appolonik va diognistik tipdagi madaniyatlarning tafovut qilinishi (Konfigurasionizm). M.Mid tadqiqotlarida madaniyat va psixologiya fanining yaxlit holda o‘rganilishi. A. Kardiner, Dj. Uayt va K.Dyubua tadqiqotlarida shaxs tarkibiy tuzilishga oid g‘oyalar (o‘rtamiyona shaxs, modal shaxs va b.).

Etnopsixologiya muammolarini o‘rganish bo‘yicha yaqin xorij mamlakatlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar

Rossiyada o‘tkazilgan dastlabki etnopsixologik tadqiqotlar va yangi fan sohasini yaratishga nazariy yondashuvlar. Nadejdinning psixik etnografiyasi va XIX asrning 40 yillarida Rus geografiya jamiyatining faoliyati. G.G.Shpetning etnik psixologiyani barpo etish to‘g‘risidagi qarashlari. XX asrda Rossiyada etnopsixologiya fanining rivojlanishi. Sechenov va Kavelin orasidagi ma’naviy madaniyat mahsullariga asoslashgan holda psixikani o‘rganish imkoniyatlari haqidagi bahs-munozaralar. L.N.Gumilev tadqiqotlarida etnoslarning kelib chiqishi to‘g‘risidagi konsepsiya. A.R.Luriyaning O‘zbekistonda amalga oshirgan tadqiqotlari.

Etnos va millat tushunchalarining qiyosiy tahlili.

Etnos va shaxs

Etnos elat, millat, irq tushunchalarining o‘ziga xos jihatlari. Millat tushunchasi. Millatniig psixologik asoslari mazmuni. Moddiy va ma’naviy madaniyat. Etnik muhit va etnik madaniyat. Etnik madaniyat xulq-atvor namunalari, qadriyatlar, mazmun-mohiyatlari tizimi sifatida. Etnosning yaxlit tizim sifatida

mavjudligi. Turli elat vakillari xulq-atvorining psixologik o'ziga xosligi. Shaxsiy o'zlikni anglash va etnik o'zlikni anglash tushunchalariniig mushtarakligi. Etnik o'zlikni anglashning tarkibiy tuzilishi va funksiyalari. Etnonim tushunchasi. Indivdualizatsiyasida tilning o'rni. Bolalar sosializatsiyasi va inkulturasiyasi. Shaxsning universallik va madaniy o'ziga xoslik nazariyalari muammosi. Millatniig psixik qiyofasi va uning tarkibiy qismlari. Etnik olam tasavvurining tarkibiy tuzilishi. Etnik ustanovkalar va sxemalar.

Milliy xarakter va etnik identiklik.

Milliy mentalitet, etnik ramzlar va madaniyat

Milliy xarakter va temperament. Milliy mentalitet va milliy tafakkur etnik identiklikning shakllanishi. Etnik identiklik turlari. Etnik identiklikning o'sishi va inqirozi fenomenlari. Milliy xarakterning asosiy nazariyalari. Milliy xarakterning asosiy o'lchovlari. Milliy va etnik ozchiliklarda etnik identiklik. Milliy-psixologik o'ziga xosliklar tushunchasi, turlari va xususiyatlari. Milliy psixikaning funksiyalari. Etnik ramzlar. Etnik ramziylashtirish mexanizmlari. Etnosning psixologik himoya mexanizmlari. Etnopsixologik hodisalarni o'rganishga yondashuviing ilmiy tamoyillari. Etnopsixologik fenomenlarning namoyom bulish mexanizmlari.

Etnik stereotiplar va ularning turlari.

Etnik o'zaro munosabatlarniig xususiyatlari

Etnik stereotip tushunchasi. Etnik stereotiplarning shakllanishi va funksiyalari. Etnik stereotiplarni o'rganish tarixi va asosiy xususiyatlari. Etnik stereotiplar va stereotipizatsiya mexanizmlari. Idrok etnik stereotiplari. Xulq-atvor etnik stereotiplari. Avtostereotiplar va geterostereotiplar. Turli etnos qiyofalarining shakllanish muammolari. Etnik o'zaro munosabatlar. Etnik o'zaro munosabatlar shakllanishining turlari va bosqichlari. Etnik jamoalarning o'zaro hamkorlik jarayonlari. Etnik o'zaro hamkorlik vaziyatida guruhlararo idrok xususiyatlari. Til etnik o'zaro hamkorlik mexanizmi sifatida. Akkulturasiya tushunchasi va uning tavsifi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. – Toshkent, 2020-yil 24-yanvar.
3. Ahrorov V.Y. Menejment va marketing psixologiyasi. – Samarqand, 2019. – 120 b.
4. Ahrorov V.Y. Sotsial psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 246 bet.
5. G‘oziyev E.G‘. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2010.
6. G‘oziyev E.G‘. Sotsial psixologiya. – Toshkent, 2012. – 316 b.
7. G‘oziyev E.G‘. Menejment psixologiyasi. – Toshkent, 2001.
8. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2013. – 168 b.
9. Jabborov A.M. “O‘zbek xalq etnografiyasi”. – Toshkent, 2015.
10. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – Toshkent, 1999.
11. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, – 172 bet.
12. Mamatov M.M. “Etnopsixologiya”. – Toshkent, 2006.
13. Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. – Toshkent: 2006. – 170 b.
14. Myers D.G. Social psychology McGraw-hill education 2012
15. Sirliyev B.N. va boshqalar. Mutaassib shaxsning psixologik xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2015. – 75 b.
16. Андреева Г. М. Социальная психология. – Москва, 2008.
17. Вундт В. «Проблемы психологии народов». – СПб, 2016
18. Майерс Д. Социальная психология, 2010. – 1314 с.
19. Полукаров В.Л., Петрушин В.И. Психология менеджмента. – Москва, 2013.
20. Почебут Л.Г., Мейжис И.А. Социальная психология. – СПб, 2010. – 521 с.
21. Qodirov O.S. Umumiy psixologiya// O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2022. – 250 b.
22. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N. Ijtimoiy psixologiya// Darslik. – Samarqand, 2023. –346 b.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100